

UDK 81'367.335:81'38(811.111+811.161.1+811.512.133)

**TURLI TIZIMDAGI TILLARDA QO‘SHMA GAPLARNING IZOMORFIK VA ALLOMORFIK STILISTIK JIHLTLARI: INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIDA****Ibroximjon Usarov,***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasida**professori v.b., filologiya fanlari nomzodi**E-mail: [ibrohimusarov11@gmail.com](mailto:ibrohimusarov11@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qo‘shma gaplarning izomorfik va allomorfik stilistik jihatlari qiyosiy-tipologik hamda lingvostilistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Izomorfizm va allomorfizm tushunchalari stilistika doirasida qayta talqin qilinib, parallelizm, antiteza, asindeton, polisindeton, gradatsiya va paremiologik korrelyatsiya singari hodisalarning uch tilda qanday reallashishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, qo‘shma gaplarning stilistik tabiatini taqozo etuvchi lingvistik omillar — tipologik qurilish, predikativlikni ifodalash vositalari, so‘z tartibi, bog‘lovchi tizimi, prosodiya va janr taqsimoti hamda ekstralingvistik omillar — adabiy an‘ana, diniy matnlar, og‘zaki xotira, ta‘limiy norma, tarjima va media muhiti izchil yoritiladi. Maqolada ingliz, rus va o‘zbek materiallari asosida keltirilgan paremiologik va badiiy misollar yordamida qo‘shma gaplar stilistikasining universal yadrosi hamda milliy-tipologik o‘ziga xos qatlamlari ajratib ko‘rsatiladi. Natijada qiyosiy stilistika uchun funksional-pragmatik ekvivalentlik va tipologik proporsionallikni uyg‘unlashtirgan ilmiy xulosalar taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘shma gap, qiyosiy stilistika, izomorfizm, allomorfizm, parallelizm, antiteza, asindeton, polisindeton, paremiologiya.

**Abstract.** The article analyses the isomorphic and allomorphic stylistic features of compound sentences in English, Russian and Uzbek from comparative-typological and linguostylistic perspectives. The notions of isomorphism and allomorphism are reinterpreted within stylistics, and the realization of such phenomena as parallelism, antithesis, asyndeton, polysyndeton, gradation and paremiological correlation is demonstrated in the three languages. The study also discusses the linguistic factors determining the stylistic nature of compound sentences — typological structure, means of predication, word order, conjunction system, prosody and genre distribution — as well as extralinguistic factors such as literary tradition, religious discourse, oral memory, educational norm, translation practice and media ecology. By means of literary and paremiological examples, the universal stylistic core and the national-typological specificities of compound sentences are identified. The paper proposes conclusions that combine functional-pragmatic equivalence with typological proportionality in comparative stylistics.

**Keywords:** compound sentence, comparative stylistics, isomorphism, allomorphism, parallelism, antithesis, asyndeton, polysyndeton, paremiology.

**Аннотация.** В статье с сопоставительно-типологической и лингвостиллистической точек зрения анализируются изоморфные и алломорфные стилстические особенности сложных предложений английского, русского и узбекского языков. Понятия изоморфизма и алломорфизма переосмысливаются в рамках стилстики, показывается реализация параллелизма, антитезы, бессоюзия, полисиндетона, градации и паремнологической корреляции в трех языках. Также рассматриваются лингвистические факторы, определяющие стилстическую природу сложных предложений: типологический строй, средства выражения предикативности, порядок слов, система союзов, просодия и жанровое распределение, а также экстралингвистические факторы — литературная традиция, религиозные тексты, устная память, образовательная норма, переводческая практика и медиасреда. На материале художественных и паремнологических примеров выявляются универсальное стилстическое ядро и национально-типологические особенности сложных предложений. В результате предлагаются выводы, сочетающие

*функционально-прагматическую эквивалентность и типологическую пропорциональность в сопоставительной стилистике.*

*Ключевые слова: сложное предложение, сопоставительная стилистика, изоморфизм, алломорфизм, параллелизм, антитеза, бессоюзие, полисиндетон, паремнология.*

**Kirish.** Turli tizimdagi tillarda qo‘shma gaplar qiyosiy stilistikasini tahlil etish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, bu hodisa faqat sintaktik qurilishlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni qayd etish bilan cheklanmaydi. Aksincha, qo‘shma gaplar turli tillarda bir xil kommunikativ vazifani bajarishi, o‘xshash stilistik samara hosil qilishi yoki, buning aksi o‘laroq, formal jihatdan yaqin ko‘ringan holda butunlay boshqa uslubiy maqom kasb etishi mumkin. Shu sababli izomorfik va allomorfik stilistik jihatlar masalasi turli tizimli tillar qiyosiy stilistikasida markaziy nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon tilshunosligida bunday qiyosiy talqin, avvalo, tipologiya va struktur universallar bilan bog‘liq holda shakllanadi [1; 2; 3].

Ingliz, rus va o‘zbek tillarining tanlanishi tasodifiy emas. Ingliz tili analitik tizimning, rus tili flektiv tizimning, o‘zbek tili esa agglutinativ tizimning yorqin vakili sifatida qo‘shma gaplarning stilistik imkoniyatlarini turlicha grammatik asoslarda namoyon etadi. Shuning uchun aynan shu uch tilning qiyosi izomorfik va allomorfik jihatlarning eng aniq manzarasini beradi. Bizningcha, bu chog‘ishtirish orqali, bir tomondan, qo‘shma gap stilistikasining universal yadro belgilari, ikkinchi tomondan esa, milliy va tipologik xos shakllari aniqroq ochiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, qiyosiy stilistik tadqiqotlarda ko‘pincha formal qurilishlar markazga chiqadi, uslubiy natija, pragmatik bosim, ritmik tashkil topish va lingvomadaniy qabul esa ikkinchi planda qoladi. Holbuki, qo‘shma gaplarning haqiqiy stilistik qiymati aynan shu qatlamlar kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda mazkur maqola qiyosiy stilistika, matn lingvistikasi va paremiologik tahlilni yagona ilmiy maydonda birlashtirishga intiladi.

Maqolaning maqsadi — ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘shma gaplarning izomorfik va allomorfik stilistik jihatlari aniqlash, ularni taqozo etuvchi lingvistik hamda ekstralingvistik omillarni yoritish va qiyosiy stilistika uchun ilmiy umumlashmalar taklif etishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: izomorfizm va allomorfizm tushunchalarini stilistik nuqtai nazardan talqin qilish; qo‘shma gaplarning universal stilistik yadrolarini aniqlash; ingliz, rus va o‘zbek tillariga xos allomorfik belgilarni ko‘rsatish; lingvistik va ekstralingvistik omillarni tizimlashtirish; paremiologik va badiiy misollar asosida qiyosiy xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, qo‘shma gaplarning izomorfik va allomorfik jihatlari faqat grammatik emas, balki uslubiy natija, kommunikativ vazifa va lingvomadaniy rezonans nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Buning natijasida izomorfizm samaraning qiyosiy yaqinligi, allomorfizm esa samaraning milliy-tipologik o‘ziga xosligi sifatida qayta belgilab olinadi.

**Tadqiqot materiali va metodlari.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvostilistik, diskursiv, paremiologik va interpretativ tahlil metodlari uyg‘un qo‘llanadi.

Qiyosiy-tipologik yondashuv ingliz, rus va o'zbek tillarining sintaktik qurilishi hamda predikativlikni ifodalash usullari o'rtasidagi asosiy farq va yaqinliklarni aniqlashga xizmat qiladi [2; 3; 20]. Lingvostilistik tahlil esa parallelizm, antiteza, asindeton, polisindeton, gradatsiya va paremiologik korrelyatsiya singari hodisalarning uslubiy funksiyasini ochadi [7; 8; 9].

Tadqiqot materiali sifatida badiiy matnlar, mashhur notiqlik namunalaridan olingan sintaktik konstruksiyalar, ingliz, rus va o'zbek paremiologik fondiga mansub maqol va matallar hamda lingvistik adabiyotlarda keltirilgan namunalar tanlanadi. Paremiologik misollarni tanlashda ularning til xotirasidagi barqarorligi va qiyosiy salohiyati mezon sifatida olinadi [10; 11; 24; 25; 26; 27; 28].

Metodologik tayanch sifatida universallar va tipologik proporsionallik haqidagi qarashlar [1; 2; 3], funksional-tipologik sintaksis [4; 20], o'zbek va qiyosiy sintaksis bo'yicha ishlanmalar [5; 6; 17; 18; 19], shuningdek, prosodiya va diskursiy tashkil topish haqidagi nazariyalar [21; 22; 23] qabul qilinadi. Bizningcha, aynan shu ko'p manbali metodologiya qo'shma gaplar stilistik tabiatini biryoqlamalikdan saqlaydi va tahlilni yanada ishonchli qiladi.

**Izomorfizm va allomorfizm tushunchalarining stilistik talqini.** Tilshunoslikda izomorfizm va allomorfizm kategoriyalari, avvalo, qiyosiy tipologiya va struktur tilshunoslik doirasida shakllanadi. J.H.Greenberg til universallari va struktur mosliklarni aniqlash orqali tillar o'rtasidagi umumiy qonuniyatlarni ko'rsatadi [1]. B.Comrie va W.Croft esa tipologik qiyosda formal birliklardan ko'ra funksional o'lchov muhimligini asoslaydi [2; 3]. T.Givón sintaksisning diskurs va funksional ehtiyojlar bilan bog'liqligini ko'rsatib, murakkab sintaktik tuzilmalarni jonli kommunikativ tizim sifatida talqin qiladi [4]. Mazkur qarashlar turli tizimli tillarni "bir xil qolip" bilan emas, balki qiyosiy funksional mezonlar asosida talqin qilishga yo'l ochadi.

Biroq, bizningcha, qiyosiy stilistika nuqtai nazaridan izomorfizmni oddiy struktur o'xshashlik deb tushunish torlik qiladi. Shuning uchun izomorfik stilistik jihat deganda ingliz, rus va o'zbek tillarida formal jihatdan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lishi shart bo'lmagan, ammo funksional-pragmatik va uslubiy natija jihatidan muqobil bo'lgan stilistik-sintaktik xususiyatlar tushuniladi. Shunga mos ravishda, allomorfik stilistik jihat deganda esa qo'shma gapning uslubiy natijasi tilning o'ziga xos grammatik resurslari, janr an'anasi, prosodik modeli yoki lingvomadaniy kodi bilan shartlangan holatlar nazarda tutiladi.

Ko'p hollarda formal o'xshashlik izomorfik stilistik natijani anglatmaydi. Masalan, ingliz va rus tillaridagi bog'lovchili ko'p qavatli subordinatsiya formal jihatdan o'xshash ko'rinsa ham, ularning uslubiy normativligi va qabul qilinish darajasi bir xil emas. Xuddi shuningdek, o'zbek tilidagi ravishdoshli yoki affiksial subordinatsiya ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri formal muqobilga ega bo'lmasligi mumkin, lekin funksional jihatdan

yaqin stilistik natijani berishi mumkin. Demak, izomorfizm — samaraning qiyosiy yaqinligi, allomorfizm esa samaraning milliy-tipologik o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Turli tizimli tillarni qiyoslashda tipologik proporsionallik va sistemali taqqoslash tamoyiliga rioya qilish muhim [5; 6]. Biz bu qarashni qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki analitik, flektiv va agglutinatив tillar o‘rtasida qo‘shma gaplar stilistikasini tadqiq etishda bir xil formal parametrlarni mutlaq mezon sifatida qabul qilish ilmiy xatoga olib keladi. Shunga qaramay, struktur-tipologik proporsionallikning o‘zi yetarli emas; stilistik tahlilda semantik, prosodik, pragmatik va lingvomadaniy proporsionallik ham talab etiladi.

### **Ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘shma gaplarning izomorfik stilistik jihatlari.**

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘shma gaplarning bir qator izomorfik stilistik jihatlari mavjud. Ular, avvalo, stilistik natija va kommunikativ funksiyaning yaqinligida namoyon bo‘ladi.

Birinchi izomorfik jihat — parallelizm va simmetrik qurilishning kuchli uslubiy vosita bo‘lishidir. R.Jakobson parallelizmi poetik funksiyaning markaziy belgilari qatoriga kiritib, ekvivalentlikning sintaktik zanjirda takrorlanishi matnda ritm va ta’sir kuchini oshirishini ko‘rsatadi [7]. V.A.Kukhareno va Y.M.Skrebnev ham parallel sintaktik modellarni kuchli stilistik vosita sifatida baholaydi [8; 9]. Paremiologik misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: “Out of sight, out of mind”; “С глаз долой — из сердца вон”; “Ko‘zdan yiroq — ko‘ngildan yiroq”. Ushbu uch misolda struktur model to‘liq bir xil emas, ammo stilistik natija bir xil: yo‘qlik hissiy uzoqlashuvni kuchaytiradi.

Ikkinchi izomorfik jihat — antitezali qo‘shma gaplarning yuqori ekspressiv salohiyatidir. “Easy come, easy go”; “Легко пришло — легко ушло”; “Oson keldi — oson ketdi” kabi misollar uch tilda ham aksiologik va harakat-temporal qarama-qarshilik orqali fikrni keskinlashtiradi. Demak, kontrastga asoslangan qo‘shma gaplar stilistikasining universal xususiyatlari mavjud.

Uchinchi izomorfik jihat — bog‘lovchisiz yoki minimal bog‘lovchili qurilishning dinamiklik hosil qilishidir. Asindeton haqidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz, rus va o‘zbek tillarida bog‘lovchining tushirilishi fikr sur‘atini tezlashtiradi, sintaktik energiyani siqadi va aforistiklikni kuchaytiradi [14; 15; 23]. “I came, I saw, I conquered”; “Пришёл, увидел, победил”; “Keldim, ko‘rdim, g‘olib bo‘ldim” uchligi buning yorqin dalilidir.

To‘rtinchi izomorfik jihat — polisindetonning distributiv urg‘u va tantanavorlik yaratishidir. Ingliz, rus va o‘zbek tillarida takroriy bog‘lovchili ko‘p komponentli qo‘shma gaplar ritmni segmentlaydi, har bir bo‘lakni alohida yuklaydi va marosimona yoki ogohlantiruvchi ohang hosil qiladi. Diniy, siyosiy va poetik matnlar buni yaqqol ko‘rsatadi. Beshinchi izomorfik jihat esa qo‘shma gapning paremiologik aforizm hosil qilish qobiliyatidir [10; 11]. “Where there is smoke, there is fire”; “Где дым, там и огонь”; “Tutun bor joyda olov bor” modellarida lokativ-sababiy korrelyatsiya semantik va stilistik jihatdan umumiy natijaga xizmat qiladi.

1-jadval. Ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘shma gaplarning asosiy izomorfik stilistik jihatlari

Izomorfik jihat	Ingliz tilidagi ko‘rinish	Rus tilidagi ko‘rinish	O‘zbek tilidagi ko‘rinish	Umumiy stilistik natija
Parallelizm	ritmik simmetriya	sintaktik-intonatsion simmetriya	hikmatli parallelizm	esda qolish, tartib, ta’kid
Antiteza	qisqa kontrastli aforizm	aksiologik qarama-qarshilik	didaktik yoki lirik tazod	keskinlashtirish, baholash
Asindeton	dinamik siqilish	intonatsion qattqlik	mantiqiy va ritmik ixchamlik	tezlik, qat’iyat, lakonizm
Polisindeton	distributiv urg‘u	segmentlangan ritm	stilizatsiyalangan urg‘u	tantanavorlik, bosqichlilik
Paremiologik korrelyatsiya	if-when-where modellar	gde-kogda-kak modeli	qayerda-qachon-kim modeli	aforistik umumlashtirish

### Ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘shma gaplarning allomorfik stilistik jihatlari.

Qo‘shma gaplarning allomorfik stilistik jihatlari, eng avvalo, til tizimining ichki grammatik resurslari bilan belgilanadi. Ingliz tili analitik tabiatga, rus tili flektiv va nisbatan erkin so‘z tartibiga, o‘zbek tili esa agglutinatativ va kesim-final tuzilishga ega. Bu farq qo‘shma gapning stilistik imkoniyatlarini ham turlicha shakllantiradi.

Ingliz tilining asosiy allomorfik stilistik belgilaridan biri — finite clause va eksplitsit bog‘lovchiga kuchli tayanuvchi, nisbatan iqtisodiy sintaktik uslubdir. Ingliz tili grammatikasining mukammal tavsiflari ko‘rsatadiki, u clause boundary va bog‘lovchi aniqligiga tayanadi [12]. Registr bo‘yicha tadqiqotlar esa zamonaviy ingliz tilida sintaktik iqtisod va segmentatsiya kuchli tendensiya ekanini tasdiqlaydi [13].

Bizningcha, bu hol ingliz tilida ko‘p komponentli va chuqur periodik qo‘shma gaplarni tabiatan yuqori markirovkalangan qiladi. Ya’ni ingliz tilida uzun va ko‘p bosqichli sintaktik qurilma badiiy yoki ritorik uslubda kuchli bo‘yoq olsa, kundalik yoki ilmiy uslubda qisqartirish bosimi kuchliroq seziladi.

Rus tilining asosiy allomorfik belgisi — murakkab periodik sintaksis va intonatsion kengayish uchun keng imkoniyat mavjudligidir. Akademik grammatika va murakkab gap tizimi bo‘yicha ishlanmalar rus sintaksisining ichki boyligini aniq ko‘rsatadi [14; 15]. I.I.Kovtunova so‘z tartibi va aktual bo‘linishning rus tilidagi elastikligi sintaktik urg‘u va stilistik markazni turli nuqtalarga ko‘chirish imkonini berishini ta’kidlaydi [16]. Bizningcha, bu jihat rus tilini period, intonatsion gradatsiya va sintaktik qaytariqlarga nisbatan juda qulay tizimga aylantiradi.

O‘zbek tilining eng muhim allomorfik stilistik belgisi — non-finit va affiksial predikativ vositalarning stilistik iqtisodga aylanishidir. O‘zbek sintaksisi bo‘yicha tadqiqotlar ravishdosh, sifatdosh, shart mayli va postpozitsion konstruksiyalar predikativ munosabatni ixcham, ammo semantik jihatdan zich ko‘rinishda ifodalash imkonini berishini ko‘rsatadi [17; 18; 19]. Bizningcha, aynan shu resurs o‘zbek tilidagi ko‘plab

qo'shma gaplarning ingliz yoki rus tilida formal muqobili topilmasa-da, funktsional jihatdan juda kuchli stilistik samara berishini ta'minlaydi.

Masalan, ingliz tilidagi "When he entered, the hall fell silent" modeliga rus tilida "Когда он вошёл, зал замолчал", o'zbek tilida esa "U kirgach, zal jimib qoldi" shakli mos keladi. Formal jihatdan bu birliklar bir xil emas. Ingliz va rus tillarida finite subordinate clause ustun bo'lsa, o'zbek tilida ravishdoshli konstruksiya asosiy yukni ko'taradi. Biroq uslubiy natija jihatidan ular funktsional ekvivalentdir. Boshqa tomondan, takroriy bog'lovchili polisindetik ko'p komponentli gap rus tilida poetik va publitsistik nutqda nisbatan tabiiy, ingliz tilida kuchli markirovkalangan ritorik vosita, o'zbek tilida esa ko'proq stilizatsiyalangan, diniy yoki poetik uslubga xos ko'rinadi. Demak, formaning o'zi izomorfik bo'lsa ham, uning markirovkalanganlik darajasi allomorfikdir.

### 2-jadval. Ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'shma gaplarning allomorfik stilistik profili

Til	Yetakchi allomorfik belgi	Asosiy grammatik resurs	Stilistik oqibat
Ingliz tili	sintaktik iqtisod va finite-clause ustuvorligi	qat'iyroq so'z tartibi, eksplitsit bog'lovchi, punktuatsion segmentatsiya	uzun periodning yuqori markirovkalanganligi, qisqa aforistik qo'shma gapning faolligi
Rus tili	intonatsion kengayish va periodik chuqurlik	erkinroq so'z tartibi, boy bog'lovchi tizimi, flektivlik	ko'p qatlamli murakkab sintaksisning normativ va stilistik faolligi
O'zbek tili	non-finit va affiksial integratsiya	ravishdosh, sifatdosh, affiksial subordinatsiya, SOV modeli	sintaktik iqtisod, mantiqiy siqilish, didaktik va hikmatli qo'shma gaplarning tabiiyligi

**Izomorfik va allomorfik jihatlarni taqozo etuvchi lingvistik omillar.** Qo'shma gaplarning izomorfik va allomorfik stilistik jihatlari tasodifiy emas; ular muayyan lingvistik omillar bilan shartlangan. Birinchi omil — tipologik qurilishdir. Analitik, flektiv va agglutinativ tizimlarning o'zi qo'shma gapning sintaktik va stilistik tabiatini oldindan ma'lum darajada belgilab beradi [2; 3]. Ingliz tilida analitiklik sintaktik qisqalik va bog'lovchi aniqligini kuchaytirsa, rus tilida flektivlik va so'z tartibi erkinligi periodik sintaksisni, o'zbek tilida agglutinativlik esa affiksial va non-finit ixchamligni kuchaytiradi.

Ikkinchi omil — predikativlikni ifodalash vositalari. T.Givón va B.Kortmann subordinatsiya va adverbial bog'lanishlarning tillar bo'yicha turlicha kodlanishini ko'rsatadilar [4; 20]. Aynan shu omil o'zbek tilini ingliz va rus tilidan keskin farqlaydi. Chunki o'zbek tilida ravishdosh, sifatdosh va affiksial ko'rsatkichlar predikativ munosabatni grammatik jihatdan ixchamlashtiradi, lekin stilistik jihatdan boyitadi.

Uchinchi omil — soʻz tartibi va aktual boʻlinish. I.I.Kovtunova hamda J.Firbas koʻrsatganidek, soʻz tartibi va tema-rema taqsimoti sintaktik urgʻu markazini oʻzgartiradi [16]. Rus tilidagi soʻz tartibi erkinligi va oʻzbek tilidagi kesim-final model qoʻshma gapning stilistik kulminatsiyasini turli nuqtalarga koʻchirish imkonini beradi, ingliz tilida esa bunday imkoniyat koʻproq leksik va punktuatsion vositalar bilan kompensatsiyalanadi.

Toʻrtinchi omil — bogʻlovchi tizimi va bogʻlovchisizlik normasi. Ingliz tilida bogʻlovchi va clause boundary juda muhim rol oʻynasa [12], rus tilida bogʻlovchisiz bogʻlanishning intonatsion salohiyati yuqori [15; 23], oʻzbek tilida esa bogʻlovchisiz va affiksial bogʻlanish koʻplab uslubiy holatlarda tabiiydir [19]. Beshinchi omil — prosodiya va punktuatsiya. D.Bolinger, W.Chafe va G.A.Zolotova intonatsiya, pauza va axborot paketlanishining sintaktik struktura bilan uzviyligini asoslab beradilar [21; 22; 23]. Oltinchi omil — registr va janr taqsimoti. D.Biber va hammualliflar koʻrsatganidek, sintaktik birliklarning chastotasi va vazifasi registr boʻyicha jiddiy oʻzgaradi [13]. Bizningcha, qoʻshma gapning izomorfik yoki allomorfik stilistik maqomini baholashda aynan janr hal qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

**Izomorfik va allomorfik jihatlarni taqozo etuvchi ekstralingvistik omillar.** Qoʻshma gap stilistikasining izomorfik va allomorfik tabiatini faqat tilning ichki qurilishi bilan tushuntirish yetarli emas. Chunki koʻplab stilistik hodisalar tarixiy-madaniy tajriba, ritorik anʼana, diniy matnlar, taʼlim tizimi, ijtimoiy kommunikatsiya va tarjima amaliyoti bilan ham bogʻliq.

Birinchi ekstralingvistik omil — adabiy va ritorik anʼana. Ingliz madaniyatida klassik parlament notiqligi va bibliyaviy uslub anaforik-parallel va polisindetik qoʻshma gaplarning kuchli rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Rus adabiyotida XIX asr realizmi va publitsistik anʼana periodik va antitetik qoʻshma gaplarning kuchli mavqeini shakllantiradi. Oʻzbek adabiy tafakkurida esa mumtoz sheʼriyat, nasriy hikmat, jadid publitsistikasi va xalq maqollari sintaktik parallelizm, tazod va didaktik qoʻshma gaplarni mustahkamlaydi. Bizningcha, aynan shu tarixiy-adabiy zamin stilistik normativlikni shakllantiradi.

Ikkinchi omil — diniy va maʼnaviy matnlar taʼsiri. Bibliyaviy uslub ingliz va rus tillarida parallel sintaksis, polisindeton va distributiv urgʻuning tarixiy manbalaridan biridir; oʻzbek tilida esa Qurʼon tafsiri, hadislar, tasavvufiy hikmatlar va nasihatnoma anʼanasi sintaktik didaktiklik va hikmatli parallelizmni kuchaytiradi.

Uchinchi omil — ogʻzaki anʼana va eslab qolish mexanizmi. Paremiologik va folklor birliklarda parallelizm, antiteza, sonli va lokativ modellar aynan eslab qolishni osonlashtirgani uchun barqarorlashadi [24; 25; 26].

Toʻrtinchi omil — taʼlim va meʼyorlashtirish tizimi. Qaysi sintaktik model maktab va oliy taʼlim darsliklarida “toʻgʻri”, “chiroyli”, “taʼsirchan” yoki “ortiqcha murakkab” deb baholanishi ham uslubiy qabulni shakllantiradi.

Beshinchi omil — tillararo aloqa va tarjima amaliyoti. Formal moslik har doim ham funksional adekvatlikni anglatmasligi tarjima nazariyasida ko‘p bora asoslangan [29; 30], bu hol qo‘shma gaplarning stilistik qabuliga ham ta‘sir qiladi.

Oltinchi omil — ijtimoiy-kommunikativ ehtiyoj va media muhiti. Zamonaviy digital kommunikatsiya qisqa, tez va segmentlangan sintaksisni rag‘batlantiradi, biroq rasmiy, ilmiy va badiiy maydonlarda murakkab qo‘shma gaplar o‘z mavqeini saqlab qoladi. Demak, media ekotizimi ham stilistik allomorfiyani kuchaytiruvchi omil sifatida ko‘riladi.

**3-jadval. Qo‘shma gaplarning izomorfik va allomorfik stilistik jihatlarini taqozo etuvchi ekstralingvistik omillar**

Ekstralingvistik omil	Ingliz tilidagi ta‘sir	Rus tilidagi ta‘sir	O‘zbek tilidagi ta‘sir
Adabiy-ritorik an‘ana	parlament nutqi, bibliyaviy uslub	realizm, publitsistika, klassik period	mumtoz she‘riyat, jadid publitsistikasi, xalq hikmati
Diniy matnlar	parallelizm va polisindeton	intonatsion va marosimona ritm	hikmatli-didaktik sintaksis
Og‘zaki an‘ana	aforistik qisqalik	memorial va maqoliy intonatsiya	hikmat, pand-nasihat, paremiologik zichlik
Ta‘limiy me‘yor	soddalik va aniqlik	murakkab sintaksisga tolerantlik	aniqlik va xalqona parallelizm uyg‘unligi
Tarjima va kontakt	global inglizcha iqtisod	slavyan ichki ta‘siri	ruscha sintaksis va milliy sintaksis uyg‘unlashuvi
Media muhiti	segmentatsiya va qisqa sintaksis	qisqarish, lekin klassik uslub saqlanadi	tezkor nutq va didaktik aforistiklik yonma-yon rivojlanadi

**Natijalar va muhokama.** Yuqoridagi tahlillar asosida qo‘shma gaplar qiyosiy stilistikasida muhim metodologik xulosa olinadi: izomorfik yadro uslubiy natijada, allomorfik ko‘rinish esa uni yuzaga chiqaruvchi grammatik va madaniy vositalarda namoyon bo‘ladi. Demak, qiyosiy stilistik tahlilda formal tenglikni emas, funksional-pragmatik ekvivalentlikni markazga qo‘yish lozim. Aks holda ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi stilistik jihatdan muhim, ammo grammatik jihatdan turlicha qurilgan ko‘plab qo‘shma gaplar “qiyosga yaramaydigan” birliklar sifatida chetda qolib ketadi.

Bizningcha, qo‘shma gaplarning izomorfik va allomorfik jihatlarini talqin qilishda ikki qatlamli yondashuv eng samarali natija beradi: bir tomondan, tipologik qurilish, predikativ vositalar, so‘z tartibi, bog‘lovchi tizimi, prosodiya va janr taqsimoti kabi lingvistik omillar hisobga olinadi; ikkinchi tomondan, adabiy an‘ana, diniy matnlar, og‘zaki xotira, ta‘lim, tarjima va media muhiti kabi ekstralingvistik omillar birgalikda tahlil qilinadi. Shu tarzda stilistik o‘xshashlik va farqlarning haqiqiy sabablari oydinlashadi.

Qo'shma gaplarning paremiologik aforizm hosil qilish qobiliyati uch til qiyosida alohida ahamiyatga ega. "Where there is smoke, there is fire" / "Где дым, там и огонь" / "Tutun bor joyda olov bor" kabi modellar ko'rsatadiki, lokativ-sababiy korrelyatsiya umumiy mantiqiy-sintaktik yadro sifatida mavjud. Biroq qabul ohangi, milliy nutqiy tabiiylik va estetik fon tillararo farqlanadi. Xuddi shuningdek, "Measure twice, cut once" / "Семь раз отмерь, один раз отрежь" / "Yetti o'lchab, bir kes" uchligida ehtiyotkorlik g'oyasi umumiy, ammo sonli va madaniy kodlar allomorfdir.

Mazkur kuzatishlar qiyosiy stilistika uchun amaliy natija ham beradi. Tarjima jarayonida va lingvodidaktik talqinda aynan mana shu izomorf-allomorf munosabatlarni hisobga olish qo'shma gaplarning uslubiy kuchini to'g'ri anglash va yetkazish imkonini beradi. Shu ma'noda maqolada ishlab chiqilgan yondashuv qiyosiy stilistika, matn tahlili, paremiologiya hamda tarjimashunoslik uchun birgalikda foydali bo'la oladi.

**Xulosa.** Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qo'shma gaplarning qiyosiy stilistik tahlili ularning izomorfik jihatlari, asosan, parallelizm, antiteza, asindeton, polisindeton, gradatsiya va paremiologik aforizm hosil qilish qobiliyatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu jihatlar uch tilda ham stilistik energiyaning umumiy yadrosi sifatida ishlaydi.

Shu bilan birga, allomorfik xususiyatlar til tizimining ichki grammatik resurslari va madaniy tarixiy an'analari bilan belgilanadi. Ingliz tilida sintaktik iqtisod va finite-clause modeli, rus tilida periodik va intonatsion kenglik, o'zbek tilida esa non-finit va affiksial integratsiya stilistik profilni shakllantiruvchi yetakchi omillar hisoblanadi.

Lingvistik va ekstralingvistik omillar birgalikda qo'shma gaplarning qiyosiy stilistikasini belgilashi sababli, ularni tahlil qilishda integrativ yondashuv zarur bo'ladi. Bizningcha, formal tenglikdan ko'ra funktsional-pragmatik yaqinlikni markazga qo'ygan qiyosiy talqin turli tizimli tillar stilistikasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Greenberg J.H. Universals of Language. — Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1963. — 112 p.
2. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. — Chicago: University of Chicago Press, 1989. — 264 p.
3. Croft W. Typology and Universals. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 356 p.
4. Givón T. Syntax: A Functional-Typological Introduction. — Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins, 1984. — Vol. 1. — 464 p.
5. Yusupov O'.Q. Problemy sopostavitel'noy lingvistiki. — Toshkent: Fan, 1986. — 128 b.
6. Hoshimov G'.M. Turli tizimli tillar qo'shma gaplarining tipologiyasi. — Toshkent: Fan, 1991. — 144 b.
7. Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language. — Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1960. — P. 350–377.
8. Kukhareno V.A. A Book of Practice in Stylistics. — Vinnytsia: Nova Knyha, 2000. — 160 p.
9. Skrebnev Y.M. Fundamentals of English Stylistics. — Moscow: Flinta, 1994. — 224 p.
10. Permyakov G.L. Osnovy strukturnoy paremiologii. — Moskva: Nauka, 1988. — 236 s.
11. Kuusi M. International Type System of Proverbs. — Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1994. — 162 p.

12. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. — London: Longman, 1985. — 1779 p.
13. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. — London: Longman, 1999. — 1204 p.
14. Shvedova N.Yu. Russkaya grammatika. — Moskva: Nauka, 1980. — T. 2. — 709 s.
15. Valgina N.S. Sintaksis sovremennogo russkogo yazyka. — Moskva: Vysshaya shkola, 2003. — 416 s.
16. Kovtunova I.I. Poryadok slov i aktualnoye chleneniye predlozheniya. — Moskva: Nauka, 1976. — 240 s.
17. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka. — Moskva–Leningrad: AN SSSR, 1960. — 446 s.
18. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995. — 296 b.
19. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tili sintaksisi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. — 304 b.
20. Kortmann B. Adverbial Subordination. — Berlin–New York: Mouton de Gruyter, 1997. — 403 p.
21. Bolinger D. Intonation and Its Uses. — Stanford: Stanford University Press, 1989. — 421 p.
22. Chafe W. Discourse, Consciousness, and Time. — Chicago: University of Chicago Press, 1994. — 327 p.
23. Zolotova G.A. Kommunikativnaya grammatika russkogo yazyka. — Moskva: Nauka, 1998. — 528 s.
24. Taylor A. The Proverb. — Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1931. — 223 p.
25. Mieder W. Proverbs: A Handbook. — Westport: Greenwood Press, 2004. — 304 p.
26. Afzalov M. O‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1987. — 256 b.
27. Mokienko V.M. Bolshoy slovar russkikh poslovits. — Moskva: OLMA Media Grupp, 2010. — 1024 s.
28. Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs. — Oxford: Oxford University Press, 2015. — 398 p.
29. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — London: Oxford University Press, 1965. — 103 p.
30. Baker M. In Other Words. — London–New York: Routledge, 1992. — 304 p.